AXBOROTLASHTIRISH SHAROITIDA HARBIY XIZMATCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI

Jurayev Zamirjon Mamasadikovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat
xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi
Tel: (97)7117769
https://doi.org/10.5281/zenodo.23318752

Annotatsiya. Ushbu maqolada muloqotning harbiy xizmatchilar faoliyatidagi turlari, muloqot yuritish kompetensiyasining tarkibiy qismlari, kommunikativ kompetentsiya elementlari haqida fikr yuritiladi.
Kalit so‘zlar: axborotlashtirish, muloqot, muloqot yuritish kompetensiyasi, kommunikativ kompetensiya, kommunikativ bilim, muloqot ko‘nikmalari.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ В УСЛОВИЯХ ИНФОРМАТИЗАЦИИ

Аннотация. В данной статье рассматриваются виды общения в деятельности военнослужащих, компоненты коммуникативной компетентности, элементы коммуникативной компетентности.
Ключевые слова: информация, коммуникация, коммуникативная компетентность, коммуникативные знания, коммуникативные навыки.

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING THE COMMUNICATIVE COMPETENCE OF MILITARY PERSONNEL IN THE CONTEXT OF INFORMATIZATION

Annotation. This article discusses the types of communication in the activities of military personnel, components of communicative competence, elements of communicative competence.
Keywords: information, communication, communicative competence, communication knowledge, communication skills.

Kirish. Zamonaviy jamiyat uchun yangi bilimlarni olish, yangi texnologiyalarni, ijtimoiy va ilmiy jarayonlarni boshqarish usullarini o‘zlashtirish muhim ahamiyatga ega. Har qanday faoliyat turi axborotni to‘plash, uni tahlil qilish, ustuvor vazifalarni tanlash, ushbu muammolarni hal qilishning maqbul variantlarini topish va ko‘zlangan maqsadlarga erishish uchun yondashuvlarni ishlab chiqish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan muayyan bosqichlardan o‘tishi kerak.

Bugungi kunda harbiy xizmatchilar doimiy yangilanadigan ma'lumotlar oqimi mavjud bo‘lgan ijtimoiy muhitning vakillari bo‘lib, hozirgi sharoitda "axborotlashtirish" kabi jarayonga yaqinlashdi. Axborotlashtirish jarayoni bugungi jamiyatning maqomi bilan, ya'ni axborot, uning sifati, erkinligi, ochiqligi va foydalanish imkoniyati ustun bo‘lgan axborot jamiyati maqomi bilan uzviy bog‘liqdir. Axborotlashtirish jamiyat hayotining barcha jabhalarini qamrab oluvchi, odamlarning axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga, shuningdek, kuchli telekommunikatsiya infratuzilmasini barpo etishga qaratilgan keng ko‘lamli jarayondir.

Respublikamizda ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi tasdiqlandi, yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbus amaliyotga tatbiq etildi, ta’limning kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta’lim standartlari hamda fan o‘quv dasturlari ishlab chiqildi, ta’lim sifatini baholash bo‘yicha me’yoriy asoslari yaratildi. Bu esa ta’lim jarayonini zarur axborotlar bilan ta’minlash, ularni o‘zlashtirib borishning maqbul yechimlarini topish va joriy qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ta’lim jarayonlarini axborotlashtirish, axborot texnologiyalaridan foydalanish, elektron muhitda axborot almashishning nazariy va metodik asoslari A.Abduqodirov, U.Begimqulov, G.Ergasheva kabilarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan. Ta’limda kompetensiyaviy yondashuvning mohiyati F.M.Zakirova, R.G.Isyanov, N.A.Muslimov, A.K.Raximov, J.E.Usarovning ilmiy ishlarida tadbiq qilingan. Kompetensiyalarning shakllanganligini tashxislash va korreksiyalash, kompetensiyalarni samarali rivojlantirishga oid yondashuvlar, axborot kompetentligini rivojlantirishning ahamiyati bo‘yicha Yu.Asadov, M.M.Vahobov, A.M.Magrupov va boshq. tadqiqotlar olib borgan.

MDH mamlakatlari tadqiqotchilaridan ta’limda kompetentli yondashuv masalalari: Z.M.Bolshakova, O.A.Imanova, N.A.Konovalova, S.A.Korolkova, N.F.Radionova, A.N.Sklyarenko, A.V.Timova, I.A.Zimnyaya, metodik kompetentligini rivojlantirish masalalari bo‘yicha I.V.Kuznesova, L.V.Shkerina va boshqalar izlanishlar olib borgan.

Ta’limni axborotlashtirish sharoitida harbiy xizmatchilarning muloqot yuritish kompetensiyasini rivojlantirish sohasida xorij olimlaridan Bill Roberts, Mal Coad kabi tadqiqotchilar izlanishlar olib borishgan, kompetensiyaviy yondashuv yuzasidan dastlabki qarashlar va bugungi kunda ta’lim sohasidagi ahamiyati F.Delamare va J.Winterton tomonidan yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy maqola mavzusini yoritishda nazariy (tahliliy-sintetik, tarkibiy-tipologik, kontent-tahlil), qiyosiy, tasniflash va tavsiflash usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Ta’limni axborotlashtirish sharoitida muloqot yuritish kompetensiyasini rivojlantirish murakkab muloqot qobiliyatlari va ko‘nikmalariga ega bo‘lish, yangi ijtimoiy tuzilmalarda adekvat ko‘nikmalarni shakllantirish, muloqotda madaniy me’yorlar va cheklovlarni bilish, urf-odatlar, an’analar, muloqot sohasidagi odob-axloq qoidalarini bilish, odob-axloq qoidalariga rioya qilish, yaxshi xulq-atvorga rioya qilish, milliy mentalitetga xos bo‘lgan va kasbiy sohada ifodalangan kommunikativ vositalarga yo‘naltirishdir.

Kasbiy muomala har bir harbiy xizmatchi va xodimning faoliyatida muhim o‘rin egallaydi. Shuning uchun ham muomalaning har bir turi faoliyat jarayonida ishtirok etadi.

Harbiy xizmatchi va xodim muomala qonuniyatlariga suyangan holda shaxslar bilan munosabatga kirishadi. Muloqot jarayonida harbiy xizmatchi va xodimning barcha kasbiy sifatlari (xotira, diqqat, idrok, sezgi, tafakkur, xayol) ishtirok etadi. Bu jarayonlar harbiy xizmatchi va xodimning mantiqiy fikrlashiga, voqeani o‘tmishdagi vaziyat bilan bog‘lashiga, o‘zaro solishtirish va qiyoslash, ob’ekt va sharoitni mukammal tarzda idrok etishiga yordam beradi.

Muloqotning harbiy xizmatchilar faoliyatida quyidagi turlari mavjud: bevosita; bilvosita; rolli; mazmunli; rasmiy; norasmiy.

Bevosita muloqot «yuzma-yuz» suhbat bo‘lib, uning har bir ish tirokchisi idrok qiladi, aloqa qiladi va hamma mavjud vositalarni keng qo‘llaydi.

Bilvosita muloqot ham aloqa vositasi bo‘lib, unda shaxslar, aloqa vositalari va mexanizmlar ishtirok etadi (masalan: telegraf,telefon orqali gaplashish).

Muloqotning ba’zi turlari ijtimoiy rollar orqali amalga oshirilib, rolli muloqot deyiladi. Bunday holatda odamlar muayyan ijtimoiy rollarni bajaruvi kishilar tarzida muloqotga kirishadilar.Masalan, tergovchi va jabrlanuvchi o‘rtasidagi muloqot rolidir.

Individning boshqa shaxsga o‘z holati, kayfiyati, xohishini mimika, harakat, imo-ishora orqali bildirishi mazmunli muloqot debataladi.

Rasmiy muloqot yuridik kuchga ega bo‘lib, davlat va jamiyatmanfaatini ko‘zlagan hamda qayd etiladigan muloqot turidir. Masalan, tergov jarayonidagi so‘roq qilish.

Shaxslararo o‘zaro muloqot jarayonida o‘zini qiziqtirgan u yoki bu ma’lumotga ega bo‘lish norasmiy muloqot hisoblanadi.

Harbiy xizmatchilar faoliyatida muloqot, ayniqsa,bevosita muloqot o‘ziga xos ahamiyatga ega. Chunki tokar temir bilan, zootexnik hayvonlar bilan ishlasa, huquqni muhofaza qilish idoralari xodimlari, shu jumladan profilaktika inspektorlari, tergovchilar, tezkor xodimlar ham shaxslar bilan, aholi bilan, guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va jinoyat jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ishlaydi. Muloqot jarayonida ularning har biri o‘ziga xos dunyoqarash va muomalaga egaligi ko‘rinadi.

Muloqot jarayonida bir-birini idrok etayotgan odamlar bir- birini tushunishga harakat qiladilar. Buning uchun quyidagi mexanizmlar ishga solinadi:

✓ Identifikatsiya – insonning o‘zini xayolan suhbatdoshi o‘rniga qo‘yishi orqali uning fikrlari va tasavvurlarini tushunishga intilishi;

✓ Empatiya – insonning o‘zini xayolan suhbatdoshi o‘rniga qo‘yishi orqali uning kechinmalari va hissiyotlarini tushunishga intilishi;

✓ Refleksiya – insonning suhbatdoshi tomonidan qanday idrok etilayotgani va tushunilayotganini anglashga intilishi;

✓ Steriotipizatsiya – insonning suhbatdoshini tushunishga intilishi yo‘lida muayyan shablonlardan foydalanishi.

Muloqot jarayonida insonlar bir-birini idrok etar ekan, bunda attraksiya (ingl.attract – jalb etmoq) jarayoni yuz berishi, ya’ni idrok etilayotgan odamga nisbatan «yoqtirish hissi» paydo bo‘lishi mumkin. Attraksiya sub’ektning ob’ektiga nisbatan emotsional munosabati sifatida shakllanadi.

Muloqot yuritish kompetensiyasi - bu shaxsning umumiy kommunikativ xususiyati bo‘lib, u ishbilarmonlik aloqasi sohasidagi muloqot qobiliyatlari, bilimlari, ko‘nikmalari,

hissiy va ijtimoiy tajribalarni o‘z ichiga oladi. Kommunikativ kompetentsiya quyidagi qobiliyatlardan iborat:

1. Muloqot qiladigan kommunikativ vaziyatning ijtimoiy-psixologik farazini aniqlash;

2. Kommunikativ vaziyatning o‘ziga xosligidan kelib chiqib, muloqot jarayonini ijtimoiy-psixologik jihatdan o‘rganish;

3. Kommunikativ vaziyatda muloqot jarayonlarini ijtimoiy-psixologik boshqarishni amalga oshirish [4].

Muloqot yuritish kompetensiyasi umumiy madaniyat va uning kasbiy faoliyatdagi o‘ziga xos ko‘rinishlarini sintezlovchi yaxlit sifatdir. Kommunikativ kompetentsiyaning shartlaridan biri ma’lum qoidalar va talablarni bajarishdir. Ushbu qoidalarning eng ahamiyatlisi quyidagilar hisoblanadi: insonlar o‘z fikrini tushunarsiz yoki to‘liq tushunmasa, uni yetkazishni boshlay olmaydi. “Tushunishga doimo tayyor bo‘lish” qoidasi. Ko‘pincha xabarlarni to‘liq va noto‘g‘ri tushunishga olib keladigan ko‘plab semantik va shaxsiy to‘siqlar mavjud. O‘ziga xoslik qoidasi. Noaniq iboralar va so‘zlardan qochish kerak, keraksiz ravishda notanish yoki juda ixtisoslashgan atamalarni ishlatmaslik kerak. Og‘zaki bo‘lmagan signallarni nazorat qilish qoidasi. Faqat nutqingizni va xabaringiz mazmunini nazorat qilishning o‘zi yetarli emas. Shuningdek, uning so‘zlayotgan nutqiga taalluqli bo‘lgan qismdagi shaklini nazorat qilish kerak - yuz ifodalari, imo-ishoralar, intonatsiya "shaxsiy mahorat" qoidasi.

Muloqot paytida shaxsiy nuqtai nazar noto‘g‘ri bo‘lishi mumkinligini har doim qabul qilish kerak. Bu ko‘pincha jiddiy xatolardan ogohlantiradi "zamon va makon" qoidasi. Har qanday xabarning samaradorligi, agar u o‘z vaqtida bo‘lsa va uni amalga oshirish uchun eng mos vaziyat tanlansa, ta’sirchanligi ortadi.

Ochiqlik qoidasi – paydo bo‘lgan vaziyat ta’sirida o‘z nuqtai nazarini qayta ko‘rib chiqishga tayyorlikni qobiliyatini anglatadi. Bunday holat suhbatdoshning nuqtai nazarini qabul qilish va hisobga olish vaqtida qo‘l keladi.

Faol va konstruktiv tinglash qoidasi – samarali muloqot qilishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Eng yaxshi suhbatdosh tinglay oladigan, har bir ma’lumotlarga diqqat bilan qarab ichki va tashqi tasavvurini yuzida ifodalab eshita oladigan insondir.

Tekshiruv qoidasi. Aynan mana shu qoida pirovard natijada kommunikativ jarayonning asosiy maqsadi – o‘zaro tushunishga erishishni ta’minlaydi [3].

Muloqot yuritish kompetensiyasi rasmiylashtirilgan yoki rasmiylashtirilmagan bo‘lishi mumkin. Rasmiylashtirilgan kommunikativ kompetentsiya - bu aloqa uchun ko‘proq yoki kamroq qat’iy qoidalar to‘plami bo‘lib, odatda jamoaviy holatlarda qo‘llaniladi. Ushbu talablar to‘plami hujjatda rasmiylashtiriladi va jamoaviy madaniyatning bir qismi bo‘lishi mumkin. Rasmiy bo‘lmagan kommunikativ kompetentsiya ma’lum bir ijtimoiy guruhning madaniy xususiyatlariga asoslanadi. Ta’riflarga ko‘ra, “umuman kommunikativ kompetentsiya” mavjud emas. Bir muhitda, bitta ijtimoiy guruhga nisbatan, pedagog yuqori kommunikativ qobiliyatni namoyish qilishi mumkin. Boshqa muhitda, boshqa ijtimoiy guruhga nisbatan, bunday bo‘lmasligi mumkin. Misol uchun qurilish ustasi o‘z jamoasida odobsiz so‘zlarni ishlatib, hamkasblarini yaxshi bilgan holda, u qo‘l ostidagilarni juda samarali boshqara olishi mumkin. Olimlar orasida u o‘zining kommunikativ qobiliyatlari past ekanligini payqashi mumkin. Muloqot kompetensiyasi ko‘plab komponentlarni o‘z ichiga

olishi mumkin. Bir vaziyatda ba’zi komponentlar ma’lum bir shaxsning malakasini oshirishi mumkin, boshqa tomondan ular uni kamaytirishi mumkin.

Muloqot yuritish kompetensiyasini (talablar tizimi) rivojlantirishda biz quyidagi tarkibiy qismlarni ajratib ko‘rsatdik: - u yoki bu lug‘atni o‘zlashtirish, - og‘zaki nutqni rivojlantirish (shu jumladan, ravshanlik, to‘g‘rilik); - yozma nutqni rivojlantirish; - odob-axloq va muloqotga rioya qilish qobiliyati; - taktika, kommunikativ ko‘nikmalarni egallash; - muloqot strategiyalarini o‘zlashtirish; - muloqot qiladigan insonlarning shaxsiy xususiyatlari va tipik muammolarini bilish; - tashqi signallarni (tana harakatlari, yuz ifodalari, intonatsiyalarni) tahlil qilish qobiliyati; - nizolarni hal qilish qobiliyati, ziddiyatsizlik; - qat’iyatlilik (o‘ziga ishonch); - faol tinglash qobiliyati; - notiqlik mahorati;- aktyorlik qobiliyatlari; - muzokaralar, boshqa ish uchrashuvlarini tashkil etish va o‘tkazish qobiliyati; - hamdardlik, boshqa shaxsning manfaatlarini tushunish qobiliyati.

Muloqot - shaxslararo muloqot va guruhlar o‘rtasida aloqalarni o‘rnatish va rivojlantirishning murakkab, ko‘p qirrali jarayoni bo‘lib, u qo‘shma faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadi va kamida uch xil jarayonni o‘z ichiga oladi: aloqa (axborot almashish), o‘zaro ta’sir (almashish) va ijtimoiy idrok (suhbatdoshini idrok etish va tushunish) [3].

Zamonaviy shaxsning muloqot madaniyatining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bu kommunikativ kompetentsiyadir. U tilga bo‘lgan qadriyat munosabatini, kommunikativ hodisalarning ijtimoiy-psixologik tomonlarini tan olish va tushunish zarurligini, ushbu hodisalarda o‘z nutqiy xatti-harakatlarini ijtimoiy hayot normalari va qonuniyatlariga muvofiq tashkil etishga tayyorligini aks ettiradi.

Pedagogik faoliyatning tabiati o‘qituvchini doimiy ravishda muloqot holatiga qo‘yadi, undan kommunikativ kompetentsiyani namoyon etishni talab qiladi, bu shaxslararo o‘zaro ta’sirga hissa qo‘shadigan shaxsning ijtimoiy-psixologik fazilatlarining rivojlanish darajasiga bog‘liq. Shu sababli, hozirgi vaqtda eng muhim muammo zamonaviy o‘qituvchining kasbiy sifati sifatida kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirishdir.

O‘z ishlarini kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirish mavzusiga bag‘ishlagan tadqiqotchilarning keng doirasi tadqiqot mavzusi katta qiziqish uyg‘otayotganini tasdiqlaydi, chunki kommunikativ kompetentsiya bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentsiyasining muhim xususiyati hisoblanadi. Bugungi kunda yaxshi mutaxassis bo‘lishning o‘zi yetarli emas, siz ham yaxshi harbiy xizmatchi va xodim bo‘lishingiz kerak, ya’ni eng yuqori natijalarga erishish uchun jamoada ishlash qobiliyati, qarorlar qabul qilishda ishtirok etish, o‘z maqsadingizning ma’nosini anglatish qobiliyati, boshqalarga tushunarli bo‘lgan bayonot va harbiy xizmatdagi hamkasblaringiz, talabalaringizning nuqtai nazarini tushunish.

Kommunikativ kompetentsiya muammosining ijtimoiy-psixologik nuqtai nazari shaxsning shaxsiy xususiyatlarini, boshqa odamlar bilan o‘zaro munosabatlarning samaradorligi bog‘liq bo‘lgan muloqot sub’yektiga xos bo‘lgan shaxsiy fazilatlarni ta’kidlaydi. Shaxs fazilatlari - bu shaxsiyatning murakkab ijtimoiy va biologik jihatdan aniqlangan tarkibiy qismlari bo‘lib, u o‘zida aqliy jarayonlarni, xususiyatlarni, shakllanishlarni, barqaror holatlarni o‘z ichiga oladi va ijtimoiy va tabiiy muhitda shaxsning barqaror xatti-harakatlarini oldindan belgilaydi.

Shakllanish ma’lum shaxsiy resurslar: fazilatlar va xususiyatlar, munosabatlar, ehtiyojlar, qadriyatlar, his-tuyg‘ular - shaxsiyat toifasiga kiradigan hamma narsa ko‘p jihatdan uning samaradorligini belgilaydi. Insonni barcha ko‘rinishlarida tavsiflovchi ko‘plab fazilatlar

orasida odamlar o‘rtasidagi samarali muloqot uchun juda zarur va muhim bo‘lgan fazilatlar mavjud. Bularga: yaxshi niyat, ochiqlik, xushmuomalalik, samimiylik, hamdardlik, bag‘rikenglik va boshqalar kiradi. Zamonaviy til nazariyasida (lingvistik yo‘nalish) an’anaviy ravishda quyidagi fan kompetentsiyalari ajralib turadi: kommunikativ va lingvistik.

Olimlarning ta’kidlashicha, kommunikativ kompetentsiya quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga olgan murakkab shakllanish sifatida namoyon bo‘ladi: mavzu (nutqdan tashqari kompetentsiya), lingvistik (nutq kompetentsiyasi), ijtimoiy-madaniy (shu jumladan, ijtimoiy munosabatlar sohasidagi bilim va tajriba, muloqot psixologiyasi), pragmatik (muayyan vaziyatda murojaat qiluvchi va nutq oluvchi o‘rtasidagi aloqa bilan bevosita bog‘liq - aloqa motivlari, munosabati va maqsadlari) [4]. Uchala soha bo‘yicha tadqiqot natijalarini hisobga olish, ularning birligi va ajralmasligini tushunish muhimdir.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv mutaxassisning malakali faoliyatini ta’minlashda kasbiy hamjamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning butun tizimini tartibga soluvchi ijtimoiy va kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy fazilatlar, umumiy madaniy va ma’naviy-axloqiy fazilatlar majmuasini o‘z ichiga oladi. Bu "kompetentlik" va kompetentsiya tushunchalari orqali o‘quv jarayoni natijalari sifati va kasbiy faoliyatga qo‘yiladigan talablarni hisobga olgan holda talabalarning kommunikativ kompetentsiyasining mazmuni va tuzilishini aniqlashga imkon beradi. Kommunikativ qobiliyat odatda boshqa odamlar bilan zarur aloqalarni o‘rnatish va qo‘llab-quvvatlash qobiliyatini anglatadi. Kompetentlik o‘z ichiga muloqot jarayonining samarali borishini ta’minlovchi bilim va malakalar majmuini o‘z ichiga oladi.

Kommunikativ kompetentsiyani o‘rganish natijasida quyidagi elementlarni aniqlash mumkin: - kommunikativ bilim; - muloqot ko‘nikmalari; - aloqa mahorati.

Kommunikativ bilim - bu muloqot nima ekanligi, uning turlari, bosqichlari, rivojlanish qonuniyatlari haqida bilimdir. Bu qanday aloqa usullari va usullari mavjudligi, ular qanday ta’sir ko‘rsatishi, ularning imkoniyatlari va cheklovlari haqida bilimdir. Shuningdek, turli odamlar va turli vaziyatlar uchun qanday usullar samarali ekanligini bilishdir. Bu soha ma’lum muloqot qobiliyatlarining rivojlanish darajasi va qaysi usullarni o‘z-o‘zidan amalga oshirishda samarali yoki qaysi biri samarali emasligi haqidagi bilimlarni o‘z ichiga oladi.

Muloqot ko‘nikmalari: xabar matnini adekvat shaklda tashkil qilish qobiliyati, nutq qobiliyatlari, tashqi va ichki ko‘rinishlarni uyg‘unlashtirish qobiliyati, fikr-mulohazalarni qabul qilish qobiliyati, muloqot to‘siqlarini yengib o‘tish qobiliyati va boshqalar.

Interfaol ko‘nikmalarini quyidagicha asoslash mumkin: insonparvarlik, demokratik asosda muloqotni qurish qobiliyati; qulay hissiy-psixologik muhitni yaratish qobiliyati; o‘zini o‘zi boshqarish va o‘zini o‘zi boshqara olish qobiliyati; hamkorlikni tashkil etish qobiliyati; prinsiplar va qoidalarga amal qilish qobiliyati; kasbiy etika va odob-axloq qoidalari, faol tinglash qobiliyati; ijtimoiy-pertseptiv qobiliyatlar; aloqada sherikning xatti-harakatlarini adekvat idrok etish, uning holatini baholash, istaklari va xatti-harakatlarining motivlarini og‘zaki bo‘lmagan signallardan tan olish, boshqa shaxsning shaxs sifatida adekvat qiyofasini yaratish qobiliyati [2].

Xulosa. Harbiy xizmatchilarda axborotlar va ularning manbalari bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishning muhimligi ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirokini ta’minlashga xizmat qiluvchi omillardan biridir.

Ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish ta’lim oluvchilarning hayotiy faoliyatlar uchun zarur bo‘lgan tayyorgarlik darajasini aniqlash, ta’lim sifatini jahon ta’lim standartlari bilan raqobatbardoshligini ta’minlash va xalqaro tadqiqotlar natijalarini ta’lim jarayoniga tatbiq etish imkonini beradi.

Axborotlardan ta’lim jarayonida foydalanish yuzasidan bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lib, ammo harbiy xizmatchilarining axborot maydonidagi o‘rni va roli yetarlicha o‘rganilmagan. Zero, ta’lim jarayonining asosiy vazifasi ta’lim oluvchilarga zarur axborot yetkazish, ularning o‘zlashtirilishiga erishish hamda o‘zlashtirilgan axborotlarni qo‘llay olishga o‘rgatishdir. Ta’limning turli darajalarida axborot texnologiyalari madaniyatining kengayishi jamiyat uchun katta ta’sirlar ko‘rsatadi. Tinglovchilar kelajakda nafaqat faol axborot texnologiyalari avlodiga aylantiriladi, balki jamiyat va oila muhitida axborot texnologiyalari madaniyatini yuksaltirishda muhim rol o‘ynashi mumkin. Ko‘rinib turibdiki, tinglovchilar birinchi navbatda mavjud imkoniyatlarning turlarini tushuna olishlari va axborot texnologiyalarini e’tiborsiz qoldirmasliklari kerak.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Khasanova G. K. ASSESSMENT CRITERIA OF ORGANIZATIONAL-MANAGEMENT COMPETENCES OF MASTER'S STUDENTS //Science and innovation. – 2024. – T. 3. – №. Special Issue 19. – C. 204-209.
2. Ruzikulova N.Sh. Selection of educational materials for the development of students’ information communication skills and their encouragement // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. - Progressive Academic Publishing, Great Britain.-2019. 918-920 pp.
3. Психология общения. Энциклопедический словар г под общ. ред. А.А. Бодалёва.— М., 2015.
4. Смолянинова О.Г. Развитие методической системы формирования информационной и коммуникативной компетентности будущего учителя на основе мултимедиа-технологий. Дис. ... док. пед. наук. 2002. – 504 с.
5. Скляренко А.Н. Технология формирования компетенций. // Методические рекомендации для преподавателя. – Москва, 2011. – 106 с.